


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 824,3 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-avgust, mln.AQSh dollari)

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 379,3 mln.AQSh dollariga (21,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 445,0 mln.AQSh dollariga (15,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 65,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-avgust, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	268,3	193,8	74,6	32,6
Xitoy	195,2	26,4	168,8	23,7
Turkiya	67,5	34,4	33,1	8,2
Qozog'iston	61,6	22,1	39,5	7,5
Qirg'iziston	55,8	44,9	10,8	6,8
Germaniya	20,4	6,2	14,3	2,5
Belorussiya	19,1	1,6	17,4	2,3
Litva	14,9	3,7	11,2	1,8
Polsha	14,2	6,7	7,5	1,7
Koreya Respublikasi	13,0	1,5	11,6	1,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 69 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,6 %), Xitoy Xalq Respublikasida (23,7 %), Turkiyada (8,2 %), Qozog'istonda (7,5 %), Qirg'iz Respublikasida (6,8%), Germaniya (2,3 %) va Belorussiya (2,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (268,3 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (195,2 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	145125,0	195643,4	268330,2
Eksport	87810,4	132920,7	193778,0
Import	57314,6	62722,7	74552,2
Saldo	30495,7	70198,0	119225,9
Xitoy	128632,4	180534,6	195201,4
Eksport	21474,8	47348,2	26401,3
Import	107157,7	133186,4	168800,1
Saldo	-85682,9	-85838,2	-142398,8
Turkiya	33200,5	65421,1	67542,1
Eksport	9641,8	21236,1	34444,0
Import	23558,7	44185,0	33098,1
Saldo	-13916,9	-22948,8	1345,9
Qozog'iston	71004,3	76923,9	61577,3
Eksport	36031,3	32390,6	22101,5

Import	34973,0	44533,3	39475,8
Saldo	1058,4	-12142,7	-17374,3
Qirg'iziston	77781,2	43552,6	55771,4
Eksport	73511,4	39024,9	44943,5
Import	4269,8	4527,7	10827,9
Saldo	69241,6	34497,3	34115,5
Germaniya	12823,8	9921,5	20415,1
Eksport	2757,9	1498,2	6158,9
Import	10066,0	8423,3	14256,2
Saldo	-7308,1	-6925,2	-8097,3
Belorussiya	2031,1	10815,5	19053,1
Eksport	1560,8	1559,9	1610,7
Import	470,3	9255,6	17442,4
Saldo	1090,5	-7695,7	-15831,7
Litva	1582,5	2830,0	14884,8
Eksport	67,7	419,4	3697,8
Import	1514,9	2410,6	11187,0
Saldo	-1447,2	-1991,3	-7489,2
Polsha	5668,5	9786,5	14158,0
Eksport	4294,4	5288,8	6656,3
Import	1374,0	4497,7	7501,7
Saldo	2920,4	791,1	-845,4
Koreya Respublikasi	12078,9	7015,7	13023,3
Eksport	198,1	146,1	1470,4
Import	11880,8	6869,6	11552,8
Saldo	-11682,7	-6723,5	-10082,4
Turkmaniston	3850,3	7262,2	10277,1
Eksport	2157,0	2046,5	5035,2
Import	1693,3	5215,6	5241,9
Saldo	463,8	-3169,1	-206,6
Ukraina	7377,2	10621,4	9262,6
Eksport	5598,5	6211,9	5443,0
Import	1778,7	4409,6	3819,5
Saldo	3819,8	1802,3	1623,5

Hindiston	6804,1	12001,1	7822,8
Ekspost	226,8	655,8	380,2
Import	6577,3	11345,3	7442,6
Saldo	-6350,5	-10689,5	-7062,5
Tojikiston	4434,4	4585,8	6602,3
Ekspost	3543,5	3479,6	3824,4
Import	891,0	1106,2	2777,9
Saldo	2652,5	2373,5	1046,6
Frantsiya	3463,9	5037,7	6458,9
Ekspost	-	-	67,8
Import	3463,9	5037,7	6391,1
Saldo	-3463,9	-5037,7	-6323,4
Eron	1696,2	4570,5	5426,2
Ekspost	529,9	1121,4	2574,6
Import	1166,3	3449,1	2851,7
Saldo	-636,4	-2327,8	-277,1
Italiya	3567,5	5646,8	4074,1
Ekspost	1160,7	754,1	1181,3
Import	2406,7	4892,7	2892,9
Saldo	-1246,0	-4138,7	-1711,6
Latviya	894,0	1951,2	3623,4
Ekspost	21,1	86,0	477,2
Import	872,9	1865,1	3146,2
Saldo	-851,8	-1779,1	-2669,0
Malayziya	6209,0	4627,2	3537,4
Ekspost	-	1,5	-
Import	6209,0	4625,7	3537,4
Saldo	-6209,0	-4624,2	-3537,4
Afg'oniston	2094,3	3001,0	3029,9
Ekspost	2094,3	3001,0	2770,9
Import	-	-	259,1
Saldo	2094,3	3001,0	2511,8

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 2,5 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLUKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-avgust % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-avgust oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (2,5 % ga) va jami TSA dagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlar soni 384 tani tashkil etib, ular tomonidan 379,3 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (56,8 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (22,4 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (12,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-avgust)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	379,3	280,1	99,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	49,0	32,2	16,9	12,9	11,5	17,0
Ichimliklar va tamaki	0,8	0,8	-	0,2	0,3	-
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	5,4	1,4	4,0	1,4	0,5	4,0
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,9	0,2	0,3	0,3	0,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9,9	6,1	3,8	2,6	2,2	3,8
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	215,3	153,0	62,2	56,8	54,6	62,7
Mashina va transport uskunalari	4,7	4,6	0,1	1,2	1,6	0,1
Har xil tayyor mahsulotlar	85,0	77,0	8,0	22,4	27,5	8,1
Xizmatlar	8,0	4,0	4,0	2,1	1,4	4,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-avgust, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-avgust oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 51,1 %), Qirg'iz Respublikasi (11,8 %), Turkiya (9,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,0 %), Qozog'iston (5,8 %), Polsha (1,8 %) va Germaniya (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,0 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2022 – yilning mos davrida 52 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-avgust, % da)**



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-avgust)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	132920,7	193778,0	151,4	145,8	1	1
Qirg'iziston	39024,9	44943,5	53,1	115,2	3	2
Turkiya	21236,1	34444,0	220,3	162,2	5	3
Xitoy	47348,2	26401,3	220,5	55,8	2	4
Qozog'iston	32390,6	22101,5	89,9	68,2	4	5
Polsha	5288,8	6656,3	123,2	125,9	7	6
Germaniya	1498,2	6158,9	54,3	411,1	12	7
Ukraina	6211,9	5443,0	111,0	87,6	6	8
Turkmaniston	2046,5	5035,2	94,9	246,0	10	9
Tojikiston	3479,6	3824,4	98,2	109,9	8	10
Litva	419,4	3697,8	619,6	881,7	18	11
Afg'oniston	3001,0	2770,9	143,3	92,3	9	12
Eron	1121,4	2574,6	211,6	229,6	14	13
Ozarbajon	387,4	1666,6	65,0	430,2	19	14
Belorussiya	1559,9	1610,7	99,9	103,3	11	15
Koreya Respublikasi	146,1	1470,4	73,8	1006,4	20	16
Pokiston	688,5	1434,8	27,2	208,4	17	17
Belgiya	716,1	1420,6	3093,1	198,4	16	18
Gruziya	948,2	1343,9	194,2	141,7	15	19
Moldova Respublikasi	1278,0	1327,5	156,3	103,9	13	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 8 028,8 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 89,1 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 215,3 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 56,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 128,8 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-avgust)

2022 - yil yanvar-avgust oyida import hajmi 445,0 mln.AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,3 %), Sanoat mahsulotlari (22,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Turli xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 59,0 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 445,0 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-avgust)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	445,0	155,0	290,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	64,7	46,0	18,7	14,5	29,7	6,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi	27,9	22,4	5,5	6,3	14,4	1,9
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	16,0	15,6	0,5	3,6	10,0	0,2
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	13,8	8,0	5,8	3,1	5,2	2,0
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	56,7	13,7	43,1	12,7	8,8	14,8
Sanoat mahsulotlari	101,1	33,3	67,8	22,7	21,5	23,4
Mashinalar va transport uskunalari	152,7	14,2	138,5	34,3	9,2	47,8
Turli xil tayyor mahsulotlar	12,1	1,9	10,2	2,7	1,2	3,5

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (29,7 %) Sanoat mahsulotlari (21,5 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (47,8 %), Sanoat mahsulotlari (23,4 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 9,8 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 27,1 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 15,0 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-avgust, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 37,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,8 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	133186,4	168800,1	124,3	126,7	1	1
Rossiya Federatsiyasi	62722,7	74552,2	109,4	118,9	2	2
Qozog'iston	44533,3	39475,8	127,3	88,6	3	3
Turkiya	44185,0	33098,1	187,6	74,9	4	4
Belarusiya	9255,6	17442,4	1968,2	188,5	6	5
Germaniya	8423,3	14256,2	83,7	169,2	7	6
Koreya Respublikasi	6869,6	11552,8	57,8	168,2	8	7
Litva	2410,6	11187,0	159,1	464,1	17	8
Qirg'iz Respublikasi	4527,7	10827,9	106,0	239,2	13	9
Polsha	4497,7	7501,7	327,3	166,8	14	10
Hindiston	11345,3	7442,6	172,5	65,6	5	11
Fransiya	5037,7	6391,1	145,4	126,9	10	12
Turkmaniston	5215,6	5241,9	308,0	100,5	9	13
Ukraina	4409,6	3819,5	247,9	86,6	15	14
Malaziya	4625,7	3537,4	74,5	76,5	12	15
Latviya	1865,1	3146,2	213,7	168,7	18	16
Italiya	4892,7	2892,9	203,3	59,1	11	17
Indoneziya	1648,3	2862,8	338,4	173,7	20	18
Eron	3449,1	2851,7	295,7	82,7	16	19
Shveytsariya	1841,6	2786,4	15,2	151,3	19	20

2021- yining mos davriga nisbatan 61 davlatdan 63 davlatga ko`paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-avgust % da)**



Sakkista yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Belarus, Germaniya, Respublika Koreya) jami importning 80,7 % ini tashkil qiladi, bu 359 177,6 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Belarus tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00